

FARG‘ONA–TOSHKENT ETNOMUSIQA NAMUNALARINING ESTETIK- FALSAFIY MOHIYATI VA MILLIY O‘ZLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Yusupova Nargiza Rustamovna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti dotsenti

E-mail: nargizayusupova1976@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Farg‘ona–Toshkent etnomusiqasining milliy o‘zlikni anglash va shakllantirishdagi muhim o‘rni yoritilgan. Muallif ushbu musiqiy an‘analar orqali xalqning tarixiy xotirasi, o‘ziga xos dunyoqarashi va ma‘naviy qadriyatlari qanday shakllanganini tahlil qiladi. Etnomusika nafaqat madaniy meros, balki jamiyatda milliy o‘zlikni saqlash va mustahkamlashning vositasi sifatida qaraladi.

Etnomusiqa estetik mohiyati maqolada chuqur yoritilib, undagi badiiy obrazlarning inson ruhiy olamiga ta’siri alohida ta’kidlanadi. Musika vositasida insonlar o‘z his-tuyg‘ularini, hayotga bo‘lgan munosabatini va orzu-umidlarini ifoda etadi. Bu holat Farg‘ona–Toshkent musiqiy maktabining o‘ziga xos uslubi, kuy va ohanglaridagi noziklik orqali anglashiladi hamda xalq estetik tafakkurining ifodasi sifatida baholanadi.

Maqolada tarixiy va zamonaviy ilmiy manbalar asosida Farg‘ona–Toshkent etnomusiqasi maktabining madaniy barqarorlikdagi o‘rni va tarixiy meros sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi. Ushbu musiqiy meros avlodlar o‘rtasida madaniy uzviylikni ta’minlovchi omil bo‘lib, u nafaqat o‘tmishning ifodasi, balki hozirgi va kelajak avlodlar uchun ham ma‘naviy tayanch hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: etnomusika, maqom, “Segoh”, “Munojot”, “Tanovar”, “Rohat”, “Bayot”, estetik tafakkur, milliy o‘zlik, Farg‘ona-Toshkent, xalq og‘zaki ijodi, tarbiya, madaniy meros, zamonaviylik va an‘anaviylik.

ABSTRACT

The article highlights the significant role of Fergana–Tashkent ethnomusicology in understanding and shaping national identity. The author examines how these musical traditions have contributed to the formation of the people's historical memory, distinctive worldview, and spiritual values. Ethnomusicology is regarded not only as a form of cultural heritage but also as a means of preserving and reinforcing national identity within society.

The aesthetic essence of ethnomusicology is thoroughly explored, with particular emphasis on its impact on the human inner world through artistic imagery. Music serves as a medium through which individuals express their emotions,

attitudes toward life, and aspirations. This is reflected in the unique style, melodies, and subtle nuances of the Fergana–Tashkent musical school, which is viewed as a manifestation of the people’s aesthetic consciousness.

Drawing on historical and contemporary scholarly sources, the article substantiates the role of the Fergana–Tashkent school of ethnomusicology in promoting cultural continuity and its significance as a form of historical heritage. This musical legacy acts as a vehicle for cultural cohesion across generations, serving not only as a reflection of the past but also as a spiritual foundation for both the present and future.

Keywords: *ethnomusic, maqom, “Segoh”, “Munojot”, “Tanovar”, “Rohat”, “Bayot”, aesthetic thinking, national identity, Fergana-Tashkent, oral folk art, upbringing, cultural heritage, modernity and tradition.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется важная роль этномузыки Фергано-Ташкентского региона в осмыслении и формировании национальной идентичности. Автор анализирует, каким образом через эти музыкальные традиции формировались историческая память народа, его самобытное мировоззрение и духовные ценности. Этномузыка рассматривается не только как часть культурного наследия, но и как важное средство сохранения и укрепления национального самосознания в обществе.

Эстетическая сущность этномузыки подробно исследуется в статье, при этом особое внимание уделяется её воздействию на внутренний мир человека посредством художественных образов. Через музыку люди выражают свои чувства, отношение к жизни и стремления. Всё это находит отражение в уникальном стиле, мелодичности и утончённости Фергано-Ташкентской музыкальной школы, которая рассматривается как выражение эстетического мышления народа.

На основе исторических и современных научных источников в статье обоснована роль Фергано-Ташкентской этномузыкальной школы в обеспечении культурной устойчивости, а также её значение как элемента исторического наследия. Это музыкальное наследие выступает фактором культурной преемственности между поколениями и служит не только отражением прошлого, но и духовной опорой для настоящего и будущего.

Ключевые слова: *этномузыка, макам, “Сегох”, “Муножат”, “Тановар”, “Роҳат”, “Байот”, эстетическое мышление, национальная идентичность, Фергана-Ташкент, устное народное творчество, воспитание, культурное наследие, современность и традиционность.*

KIRISH

Har bir xalqning ma'naviy-madaniy merosi, avvalo, uning musiqiy an'analari, kuy-qo'shiqlari, estetik qarashlari orqali namoyon bo'ladi. O'zbekiston hududida shakllangan musiqiy maktablar ichida Farg'ona-Toshkent etnomusika maktabi alohida o'rin tutadi. Ushbu maktab nafaqat kuylar va ijrochilik san'ati, balki chuqur falsafiy-estetik mazmuni bilan ham ajralib turadi. Uning estetik qadriyatlari nafaqat mahalliy an'analarni aks ettirish, balki insoniyatning universal badiiy tafakkuri bilan ham bog'liqdir. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev "Sharq taronalari" festivalida ta'kidlab o'tkanlaridek, "Musika – hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega"[1]dir. U shaxs va jamiyatning ma'naviy-madaniy rivojlanishida alohida o'rin tutadi.

Farg'ona-Toshkent musiqiy an'anasi qadimiy xalq og'zaki ijodiyoti, maqom san'ati, ashula va raqs janrlarining uyg'unligidan tashkil topgan. Ular xalqning hayot tarzi, mehnati, quvonchu tashvishlarini o'zida mujassam etgan. Etnomusika vositasida avlodlar o'rtasida estetik qarashlar, ma'naviy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar yetkazilgan. Shu bois bu musiqiy maktab milliy o'zlikni anglash va uni mustahkamlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Farg'ona–Toshkent etnomusika namunalarining estetik-falsafiy mohiyati va milliy o'zlikni shakllantirishdagi o'rni bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik manba sifatida foydalanish mumkin.

Metodlar. Farg'ona–Toshkent etnomusika namunalarining estetik-falsafiy mohiyati va milliy o'zlikni shakllantirishdagi o'rnini o'rganishda germeneytik tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy usullardan foydalanilgan.

Ilmiy muammoning qo'yilishi. T. Levin "The Music of Central Asia" asarida ta'kidlashicha, Markaziy Osiyo musiqasi madaniy o'zlikni saqlashda geografik va siyosiy chegaralardan ustun turadi. Markaziy Osiyo musiqasi mintaqaning murakkab siyosiy va ijtimoiy tarixiga qaramay, mahalliy madaniy o'zlikni saqlab qolishning kuchli vositasi bo'lib kelgan. Musika geografik chegaralar va siyosiy o'zgarishlardan ustun turadi. Levin O'zbekiston misolida Shashmaqom kabi an'analarning sobiq Sovet davrida qidrsizlantirilishi va mustaqillikdan keyin qayta tiklanayotgani haqida gapirib, uni madaniy mustaqamlilik ramzi deb ta'riflaydi¹. O'zbek etnomusiqashunosi F. Karomatov o'zining "O'zbek musiqasi tarixi" asarida Farg'ona-Toshkent an'alarini turkiy-Mavoroaunnahr musiqiy tizimining yagona manbai deb

¹Levin T. "The Music of Central Asia". Indiana University Press, 2016.

hisoblaydi². O'zbek xalqi urf-odatlar, bayramlari va an'analari sohasida yirik tadqiqotchisi U. Qoraboyev o'zbek xalq urf-odatlar, bayramlari va an'analari haqidagi ko'plab ilmiy asarlariga ega. Olim "O'zbek xalqi bayramlari" asarida o'zbek xalqining tarixiy va zamonaviy bayramlari, ularning paydo bo'lishi, shakllanishi, ma'naviy va madaniy mohiyati keng qamrovli tahlil etilgan. Muallif bayramlarni xalq ruhiyati, milliy o'zlik va an'analarning ifodasi sifatida ko'radi³. Dilnoza Qodirovaning "O'zbek milliy musiqasining estetik xususiyatlari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek milliy musiqasining estetik mohiyati, uning badiiy ifoda vositalari, ma'naviy-axloqiy mazmuni va xalq ongidagi o'zni chuqur falsafiy tahlil qilingan⁴. Muallifning ta'kidlashicha, musiqa nafaqat san'at turi, balki milliy o'zlik va ruhiyatning estetika orqali namoyon bo'lishi ma'nbaidir. Estetika fanini o'rganishga bag'ishlangan ijodkorlar orasida Abdulla Sher, B.Husanov, E.Umarovning "Estetika" faniga doir uslubiy qo'llanmasida estetik qarashlar, san'at va go'zallik masalalari, falsafiy-estetik tushunchalar tahlil qilingan. Uslubiy qo'llanmada musiqa aniq mavzu sifatida alohida bob yoki bo'lim sifatida ajratib o'rganilmagan bo'lsada, biroq, kitobda san'atning turli shakllari (tasviriy san'at, adabiyot, teatr, musiqa) haqida umumiy tushunchalar berilgan⁵. Estetika esa umumiy falsafiy fan sifatida barcha san'at turlarini, shu jumladan musiqani ham qamrab oladi. M. Umarovning "Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi" kitobida estrada janrlari, tomosha san'atining, musiqaning o'ziga xos jihatlarini, O'zbekiston musiqa san'atining tarixiy bosqichlarini yoritilish bilan birgalikda musiqaning jamiyatga ta'siri, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko'rib chiqilgan⁶.

Asosiy qism. Milliy o'zlikni anglashda musiqaning o'zni katta bo'lib u xalqning tarixiy ildizlari, madaniy merosi va his-tuyg'ularini ifodalashning kuchli vositasi hisoblanadi.

Musiqa orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va milliy ruh asrlar davomida saqlanib keladi, shu bilan birga yangi avlodlar o'z madaniyati va milliy kimligi bilan faxrlanish hissini rivojlantirishga yordam beradi.

Milliy o'zlik – biror millatning madaniy, tarixiy va psixologik jihatdan o'ziga xosligini anglash jarayonidir. etnomusiqa bu jarayonning asosiy omillaridan biri hisoblanadi, chunki:

- Madaniy an'analarni saqlaydi – Musiqa orqali urf-odatlar, til, diniy va falsafiy qarashlar avloddan-avlodga o'tadi.

² Karomatov F. "O'zbek musiqasi tarixi". Toshkent, 1972.

³ Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002. – 246 bet.

⁴ Qodirova D.S. O'zbek milliy musiqasining estetik xususiyatlari. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: O'zMU, 2012. – 164 bet.

⁵ Abdulla Sher, Husanov B., Umarov E. Estetika. Uslubiy qo'llanma. –Toshkent: Universitet, 2008. – 170 b.

⁶ Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi: Darslik. – T.: Yangi asr alodi, 2009. – 323 b.

- Etnomusiqa milliy birlik vositasi sifatida – Xalq qo‘shiqlari, maqomlar va raqslar orqali inson o‘z etnik guruhiga mansublik hissini yanada ko‘roq anglaydi va mustahkamlaydi.

- Etnomusiqa psixologik barqarorlikni ta‘minlash vositasi sifatida – Musiqa milliy g‘urur va hamjihatlikni his qilishga yordam beradi. Kishlarning birlashuvchanlikka, jamoaviylikka bo‘lgan intilishlari anglanmas ong osti orqali yuz berib, bu nazatiyani K. Jung “kollektiv ongsizlik” nazariyasida o‘rganib chiqqanini ko‘rishimiz mumkin⁷.

- Maqomlarni Farg‘ona-Toshkent etnomusiqasining bir qismi sifatida – o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ladi. Maqomlar, xususan Shashmaqom, Xorazm maqomoti, Farg‘ona-Toshkent maqomoti — Markaziy Osiyoning, xususan O‘zbekistonning turli hududlarida shakllangan katta musiqiy tizimlardir. Ular xalq musiqa an‘analariga tayangan holda professional musiqiy madaniyat sifatida rivojlangan. Farg‘ona–Toshkent maqom maktabi mavjud. Bu alohida musiqiy maktab sifatida e‘tirof etilgan va UNESCO tomonidan 2008-yilda “Farg‘ona-Buxoro-Toshkent maqom san‘ati” nomi bilan noaniy madaniy meros sifatida ro‘yxatga olingan. Bu maktab Shashmaqomdan farqli ravishda xalqona ijrochilikka yaqinroq, his-tuyg‘uga boy va o‘ziga xos ijro texnikasi bilan ajralib turadi. Farg‘ona–Toshkent maqomlarining xususiyatlari: 1) improvizatsiyaga boy; 2) ashula va cholg‘u uyg‘unligiga asoslangan; 3) xalq qo‘shiqlari bilan chambarchas bog‘liq; 4) “Tanovar”, “Segoh”, “Rohat”, “Munojot”, “Bayot” kabi kuylar ko‘p ijro etiladi, lekin ularning shakli Farg‘ona-Toshkent ijrochiligida o‘zgacha. Demak, maqomlar Farg‘ona–Toshkent etnomusiqasining bir qismi hisoblanadi, ammo ular bu hududga o‘ziga xos tarzda moslashtirilgan: xalqona, erkinroq, improvizatsion shaklga egadir. Maqomlar Farg‘ona–Toshkent etnomusiqasida estetik-falsafiy mazmun kasb etgan, biroq ular sof xalq musiqasi emas, balki xalqona-professional musiqa sifatidagi shaklidir. Chunonchi, xalq musiqasi — bu xalqning og‘zaki ijodi bo‘lsa, etnomusiqa — bu xalq musiqasini ijtimoiy-falsafiy va madaniy kontekstda o‘rganuvchi ilmiy tushuncha va musiqiy tizimdir. Etnomusiqa xalq musiqasidan kengroq, murakkabroq va ko‘proq ilmiy-tahliliy asosga ega.

Xalq og‘zaki ijodiyoti tarixiy va ma‘naviy manbaa sifatida ko‘rib chiqilsa, *dostonlar* (Alpomish, Go‘rog‘li) – qahramonlik va milliy qadriyatlarni kuylash orqali tarixiy va ma‘naviy xotirani tirik saqlashga xizmat qiladi. *Marosim qo‘shiqlari* (Yor-yor, Kelin salom) – Nikoh, tug‘ilish kabi an‘analarda ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi element sifatida xizmat qiladi.

⁷ Jung K. “Archetypes and the Collective Unconscious”. 1959.

Maqom san'ati va milliy cholg'u asboblari ilohiyot va dunyoviylikning o'zaro uyg'unligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Shashmaqom va Farg'ona-Toshkent maqomlari bular so'fiylik falsafasidagi "Vahdat al-vujud" (birlik) g'oyasini musiqiy ifodalanishidir.
- Estetik tafakkurni o'stiruvchi kuch tarzida maqomlarning ohangdorligi, ma'naviy chuqurligi va falsafiy mazmuni inson qalbida go'zallikni anglash, ichki uyg'unlikni his etish va ruhiy kamolot sari intilish hissini uyg'otadi.
- Dutor, tanbur, doira kabi cholg'u asboblari esa milliy texnologiyalar namunasi sifatida nafaqat musiqa ijrosi vositasi, balki xalqning estetik tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy o'zligining moddiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Farg'ona dutori Toshkent dutoriga nisbatan yumshoqroq ohangga ega.

O'zbek milliy musiqasi xalqning ruhiyatini, tarixini va orzu-umidlarini musiqiy obrazlar orqali ifodalaydi. Bu musiqa orqali nafaqat estetik zavq olinadi, balki ma'naviy birlashuv ham yuz beradi. U milliy o'zlikni saqlash va avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Musiqa insonning his-tuyg'ulari va kechinmalarini ifoda etish vositasi bo'lib, u ko'plab asrlar davomida insoniyatga hamroh bo'lgan.

Estetika — bu go'zallik haqidagi fan bo'lib, u san'at asarlarining hissiy va aqliy ta'sirini tahlil qiladi. Etnomusiqa san'atida estetikaning asosiy kategoriya va tushunchalari o'zining yorqin ifodasini topgan. Jumladan, go'zallik, ulug'vorlik va fojeaviylik kabi asosiy estetik kategoriyalar ayniqsa an'anaviy maqom ijrochiligidagi, kuy va ashulalarda chuqur ildiz otgan. Bu kategoriyalar etnomusiqada nafaqat badiiy zavq uyg'otadi, balki insonning ruhiy-ma'naviy holatini teran idrok etishga, ichki olamining uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Etnomusiqa san'ati o'zining obrazlarga boyligi bilan ajralib turadi. U kuylarning ohangdorligi, ohanglarning bir-biri bilan mayin bog'lanishi, musiqiy tovushlarning ichki quvvati orqali tinglovchi undan nafaqat musiqiy zavq oladi, balki hayot va mamot, mavjudlik va borliq haqidagi falsafiy fikrlarni oylay boshlaydi.

Markaziy Osiyo, xususan, Farg'ona-Toshkent etnomusiqasi ham inson qalbini qamrab oluvchi nozik tuyg'ular, falsafiy chuqurlik va madaniy ramzlarni o'zida saqlaydi.

- Etnomusiqa estetik jihatlarini qiyidagi jarayonlarda ko'rishimiz mumkin: etnomusiqa tabiat bilan uyg'unligida, masalan "Tanovar", "Chorgoh" kabi musiqa yordamida tabiatni "eshitishimiz" mumkin. Bunga ritmlaridagi va ohaglardagi jilolanish – suvning mavjlanishi, dengizning haybati, shamolning shovqini, qushlar sayrash misol bo'la oladi.

- Shu bilan birga mazkur etnomusiqaning o'ziga hos ichki falsafasi, ruhiy ohangi va estetik yo'nalishi mavjud bo'lib, u aynan shu jihati bilan boshqa hudud etnomusiqasi bilan ajralib turadi. Bu kuylar inson qalbidagi kechinmalar, fikrlar, hayotga bo'lgan qarashlar va borliq bilan bo'lgan munosabatni ifodalaydi. Har bir maqom go'yoki hayotiy bir sahifani ochadi, uni musiqiy ifodalar orqali anglash va his qilish imkonini beradi:

a) "Segoh" maqomi — bu hayotning aylanmasi, inson hayot yo'lining doimiy harakat va o'zgarishlardan iborat ekani haqidagi falsafani o'zida mujassam etadi. Segohda ifodalangan kuylar turmushning shod-u-hurramligi, qayg'si, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, tug'ilish va yo'qolish oralig'idagi ziddiyatli uyg'unlikni his qilishga chorlaydi. Bu maqomda inson o'zini tabiat va jamiyat bilan uyg'unlikda his etadi, hayot qonuniyatlariga taslim bo'ladi.

b) "Munojot" — bu ruhiy poklanish va soflik ohangidir. Maqom odatda sekin, ichki mulohazaga chorlovchi tarzda boshlanadi, bu esa tinglovchining qalbidagi o'zlikka qaytish, ruhiy komillikka intilish tuyg'ularini uyg'otadi. "Munojot" so'zining o'zi ham Alloh bilan yolborib muloqot qilish, botiniy va zohiriy olamdagi azob-uqubatlarni iztirobni yengish ramzi bo'lib, maqomdagi har bir ohang ilohiy yuksalishga eltuvchi ruhiy ko'priklar vazifasini bajaradi.

c) "Tanovar" — bu hayot zavqi va go'zalligi bilan to'yingan maqomdir. U ko'pincha bayramlarda, to'y-tomoshalarda ijro etilgan bo'lib, xalq orasidagi ijobiy ruhiyatni ifodalaydi. Uning harakatli va quvnoq ohanglari hayotni sevish, undan lazzat olish, yashash quvonchini his qilishga chorlaydi.

d) "Rohat" maqomi — nomidan ham ma'lumki, ruhiy osoyishtalik, ichki muvozanat g'oyasini ifodalaydi. U tinglovchining ruhiyatini tinchlantiradi, ichki uyg'unlik va barqarorlik holatiga olib boradi.

e) "Bayot" esa ko'proq iztirob va sabr timsolidir. Unda inson qalbidagi og'riq, yo'qotish, sinov va bardoshlilik g'oyalari musiqiy shaklda aks etadi. Bu maqom musiqasida hayotda har qanday og'irlikdan keyin ham yorug'lik va umid borligini eslatadi.

Bu maqomlar tasodifiy kuylar majmuasi emas, balki inson borligining turli holatlarini, jamiyatdagi ruhiy holatlarni musiqiy tilda ifoda etuvchi estetik-falsafiy tizimdir. Har bir maqom — bu ruhiy holatni shaklga soluvchi estetik manzara, u orqali inson o'zining hayotiy holatini angelaydi, qabul qiladi yoki unga qarshi ichki kurash olib boradi.

Etnomusiqada mujassam bo'lgan ramziy shakllar, intellektual musiqiy o'ylar, emotsional turg'unlik va ozgaruvchanlik insonni nozik estetik idrokka undaydi. Aynan shunday musiqiy hodisalar orqali etnomusiqqa insonni tarbiyalovchi falsafiy-

estetik tizim sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu hududda shakllangan maqomlar, xalqona kuylar, ashulalar va marosim ohanglari inson ongi, qalbi va ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, uning ma’naviy kamolotini shakllantirishga xizmat qiladi. Farg‘ona–Toshkent xalq ashulalari (yor-yor, alla, muhabbat qo‘shiqlari), marosim musiqasi (to‘y ashulalari, motam qo‘shiqlari, navro‘z va bahor bayram kuylari), raqs musiqasi (Farg‘ona raqsi musiqasi, doira ritmlariga asoslangan raqs musiqalari, ayollar raqslari uchun mo‘ljallangan musiqalar), ustoz-shogird an‘anasi asosida ijro etiladigan maktab kuylari (Shashmaqomdan olingan, ammo xalqona ijroga moslashtirilgan parchalar, muqaddima (maqom boshlanishi), tasnif (ohangli qo‘shiq qismi), saqil, gardun, talqin, ufori – ritmik asosli qismlar) kabi asarlar inson hayotining mazmuni, sinovlari, sabr, muhabbat, poklik kabi tushunchalarni musiqiy tilda ifodalaydi. Ular orqali inson hayot falsafasini musiqiy sezgi orqali anglaydi, natijada estetik idrok orqali axloqiy saboq oladi.

Sharq mutafakkirlari, xususan, Al-Farobiy, Ibn Sino va Abdurahmon Jomiy musiqani ruhiy salomatlik, qalb tinchligi va axloqiy yetuklikka eltuvchi vosita sifatida baholagan.

Jumladan, Abu Ali ibn Sino musiqaning tabiatini chuqur tahlil qilgan holda, uni kayfiyatlarning musiqiy ifodasi deb biladi. Uning fikricha, musiqadan olinadigan zavq — bu ohanglarning fazoda muvozanatli tarzda tarqalishi, pardalarning izchil navbat bilan kelishi va ularning uyg‘unligidadir. Ibn Sino musiqada ta’sirchanlik tovushning o‘zida emas, balki uni ijro etish uslubida[4] ekanini ta’kidlaydi⁸. Shu jihatdan u musiqani notiqlik san’ati bilan chambarchas bog‘laydi: insonning turli holatlarda qanday ohangda gapirishi, qanday ohang bilan his-tuyg‘ularini ifoda etishi musiqaning tabiiy ildizlariga borib taqaladi. Ma’salan, inson g‘azablanganida ovoz baland, qo‘pol va tez bo‘ladi, muhabbat izhor qilganda esa muloyim, yumshoq va yurakka yaqin eshitiladi. Ibn Sino bu xususiyatni “musiq — inson ruhiyatining tovushdagi aksidir” degan fikr bilan ifodalagan.

Shuningdek, Ibn Sino go‘zallik masalasida ham Farobiy ta’limotining izdoshi sifatida tanilgan. U jismoniy go‘zallikni qalb go‘zalligi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, chinakam go‘zallik — bu uyg‘unlik, tartib, muvozanat va nazokat[3]ning birligidir. Biroq u go‘zallik va xunuklik o‘rtasida dialektik qarama-qarshilik mavjudligini ham ta’kidlaydi: chiroyli yuzga ega odam ma’naviy jihatdan xunuk bo‘lishi mumkin, xunuk yuzli odam esa ajoyib qalb egasi bo‘lishi mumkin. Bu fikr musiqaning ham tashqi va ichki sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishda muhim ahamiyatga ega.

⁸ Ibn Sino. Tibb qonunlari. — T.: O‘zbekiston, 2007.

Musika san'atida ulug'vorlik esa aynan nutqning, ya'ni ovozning zalvorli, qat'iy va salobatli chiqishi bilan bog'liq. Ayniqsa maqomning vokal qismi, xususan, "Munajat" yoki "Segoh"larda, ijrochining ovozida ichki da'vat va yuksak ruhiy holat mujassam bo'ladi. Bu jihatni notqlik san'ati bilan bevosita bog'lash mumkin. Farobiyning fikriga ko'ra, nutqning turli shakllari – poetik, ritorik, sofistlik, dialektik va apodiktik nutq – haqiqatni ifoda etish darajasiga ko'ra farqlanadi. Etnomusiqaning estetik tabiati aynan poetik va ritorik nutq bilan uyg'unlashib, inson ongi va qalbiga chuqur ta'sir qiladi.

Shunday qilib, etnomusika san'ati — bu shunchaki musiqiy ifoda emas, balki xalqning falsafiy dunyoqarashi, tarixiy xotirasi, ruhiy tajribasi va estetik qadriyatlarining badiiy shaklidir. U go'zallik, ulug'vorlik va fojeaviylik kabi estetik kategoriyalar orqali inson qalbida yuksaklik, uyg'unlik va o'zlikni anglash hissini uyg'otadi.

Farg'ona–Toshkent etnomusiqasi — o'zbek musika madaniyatining yuksak namunasi sifatida, nafaqat tarixiy-estetik obida, balki zamonaviy san'at makonida faoliyat yuritayotgan "tirik" merosdir. Bugungi kunda bu musiqiy meros teatr, estrada, kino san'ati va multimediali san'at shakllari bilan uyg'unlashib ketgan. U yangi texnologiyalar orqali keng auditoriyaga kirib borar ekan o'zida ruhiy teranlik, go'zallik, hissiy murakkablik kabi qadriyatlari saqlanib kelmoqda.

Masalan, estrada, teatr va kino san'atida lapar, yalla, ashula, maqomning ifodalanishini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- O'zbek Milliy akademik drama teatri repertuarida Farg'ona-Toshkent kuylariga asoslangan musiqiy spektakllar ("Layli va Majnun", "Zaynab va Omon") muntazam sahnalashtirilib kelinmoqda.

- O'zbek kinosida xalq musiqasi va qo'shiqlari ishlatilgan filmlar ko'p. Rejissyor Yo'ldosh Agzamovning "Maftuningman" badiiy filmida, Ali Xamroyevning "Yo'r-yo'r" badiiy filmida, Shuxrat Abbosovning "Mahallada duv-duv gap" kabi ko'plab mashhur badiiy filmlarda maqomlardan, etnografik-xalq musika va qo'shiqlaridan emotsional fond sifatida foydalanilgan bo'lib, bu musiqalarning ruhiy-hissiy qudratini zamonaviy madaniyatga olib kiradi. Filmida asosan o'zbek xalq musiqasi va maftun etuvchi, to'y qo'shiqlari, hazil-mutoyiba kuylar, karnay-so'znay musiqalari kabi an'anaviy qo'shiqlar ishlatilgan.

- Farruh Zokirov, Yulduz Usmonova, Ozodbek Nazarbekov, Munajat Yo'lchiyeva, Ravshan Namozov kabi mashhur xonandalar maqom kuylari va xalq ashulalarini estrada shaklida sayqallab, an'anaviylikni zamonaviy ohangga moslashtirib kelmoqdalar.

2017-yilda O‘zbekiston milliy maqom san’ati YUNESKOning “Insoniyat nomoddiy madaniy merosi durdonalari” ro‘yxatiga kiritildi. Bu bilan etnomusika dunyo sahnasiga raqamli kontekstda chiqdi. YouTube, Spotify va Apple Music platformalarida maqomlar — “Shashmaqom”, “Tanovar”, “Nasrullovi”, hatto og‘zaki xalq ashulalarining modern talqinlari keng tarqatilmoqda. “UzMaqom” loyihasi doirasida 2021-yildan boshlab maqomlarning raqamli arxivi yaratilmoqda.

Albatta zamonaviylik sharoitida cheksiz imkoniyatlar bilan bir qatorda milliy madaniyatimizga, xususan etnomusiqamizga bo‘layotgan salbiy ta’sirlarni ham ko‘rsatib o‘tmog‘miz darkor. Jumladan, globalizatsiya ta’siri ostida bir qator muammolarni ham yuzaga chiqarmoqdaki ular yoshlar orasida g‘arb musiqa janrlariga (pop, rep, R&B) qiziqishning kuchayishi milliy kuylar, ayniqsa maqom va xalq ashulalari eshitilishini nisbatan kamaytirmoqda.

Shuningdek, etnomusika sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari yetishmasligi, aksariyat ashulalar og‘zaki an’anada yashaganligi bois, ularning ko‘plari yozib olinmagan, etnomusiqiy yodgorliklarni tasniflash, arxivlash, ilmiy sharhlash ishlari kutilayotganidek jadal yuritilmayapti.

XULOSA

Farg‘ona–Toshkent etnomusika maktabi O‘zbekiston xalqining boy madaniy merosining muhim qismini tashkil etadi. Uning asosini xalq musiqasi an‘analari, dostonchilik an‘analari, aytimlar, matallar, maqom san’ati va milliy ashulachilik an‘analari tashkil qiladi. Bu musiqiy meros:

- milliy o‘zlikni anglash va uni mustahkamlashda;
- estetik va falsafiy tafakkurni rivojlantirishda;
- ruhiy-ma’naviy uyg‘unlikni ta’minlashda;
- jamiyatda birdamlik va tarixiy xotirani tiklashda muhim rol o‘ynaydi;
- tarbiyaviy va axloqiy vazifasida go‘zallikni sezish, axloqiy tafakkur va jamiyaviy xotira bilan bog‘lanishni rivojlantiradi;
- zamonaviylik va an’anaviylik bilan bog‘liqlikda raqamli arxivlar, akademik dasturlar va zamonaviy media (kino, teatr) bilan uyg‘unlashuvni saqlanish imkoniyatlarini yaratadi.

Farg‘ona–Toshkent maqomlari, ayniqsa, o‘ziga xos improvizatsion uslubi, xalqona ohanglari va chuqur falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Har bir maqom – bu inson ruhiyatining bir manzarasi, hayotning turli holatlarini musiqiy til orqali ifodalovchi estetik-falsafiy tizimdir.

Musika nafaqat san’at turi, balki milliy ruhiyatning, ma’naviyatning va tarixiy ongning asrlar davomida shakllanishi va uzviyligini ta’minlovchi ijtimoiy-madaniy

hodisadir. Shuning uchun etnomusiqani o'rganish – bu faqat kuylarni tahlil qilish emas, balki xalqning ichki dunyosini, ruhiy olamini va estetik qadriyatlarini anglash demakdir.

Shu tariqa, Farg'ona–Toshkent etnomusiqasi nafaqat musiqa san'ati sifatida, balki estetik, falsafiy va tarbiyaviy tizim sifatida ham o'zining betakror o'rniga ega bo'lib, bugungi va kelajak avlodlar uchun ma'naviy-ma'rifiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa — “beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega”[1] bo'lib, u shaxs va jamiyatning ma'naviy-madaniy rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Musiqa “hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan”[1] ta'sir kuchiga ega ekani haqidagi Shavkat Mirziyoyev fikri san'atning inson tafakkuri va hissiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatuvchi noyub tabiati bilan uyg'unlashadi.

REFERENCES:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Musiqa – hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega”. “Sharq taronalari” festivalida so'zlagan nutq. 2019-yil 27 avgust.
2. Abdulla Sher, Husanov B., Umarov E. Estetika. Uslubiy qo'llanma. –Toshkent: Universitet, 2008. – 170 b.
3. Al-Farobiy. Musiqa ilmi haqida kitob. — T.: Fan, 1993.
4. Ibn Sino. Tibb qonunlari. — T.: O'zbekiston, 2007.
5. Jung K. “Archetypes and the Collective Unconscious”. 1959.
6. Karomatov F. “O'zbek musiqasi tarixi”. Toshkent, 1972.
7. Levin T. “The Music of Central Asia”. Indiana University Press, 2016.
8. Qodirova D.S. O'zbek milliy musiqasining estetik xususiyatlari. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: O'zMU, 2012. – 164 bet.
9. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002. – 246 bet.
10. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi: Darslik. – T.: Yangi asr alodi, 2009. – 323 b.